

“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
22-mavzu: “Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning
buyukligi”

Dars maqsadi: Umumiy maqsad:

Annotatsiya: Ushbu mashg‘ulot davomida 9-11-sinf o‘quvchilarning to‘plagan bilimlarini takrorlash, ayni paytdagi darslik ma’lumotlariga mutanosib ravishda qo‘shimcha ma’lumotlar berish, adabiy yondashuv orqali xotiralarini charxlash maqsad qilingan. Bilamizki, maktabda turli fanlar orqali ham ushbu ikki ajdodimiz haqida bilimlar berib boriladi. “Kelajak soati” orqali esa o‘sha bilimlarning qay darajada o‘zlashtirilganligiga ham ahamiyat qaratiladi. Bundan tashqari, darslikdan biroz chetga chiqib, qiziqarli ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni jalb qilishga harakat qilinadi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi bilimlarini qay darajada ekanligini aniqlash.
2. Bu ikki siymo haqidagi o‘quvchilarning fikrlarini bilish va ularni tanqidiy tomondan mavzuga yondashuvlarini kuzatish.
3. Tarixiy faktlarni bugungi atrofimizdagi hodisalarga bog‘lab o‘quvchilarda mavzu doirasida kengroq mushohada qilish ko‘nikmasini shakllantirish.
4. O‘quvchilarda mavzuga doir bilimlarini mustahkamlashga erishish va ikki siymo haqida aniq ma’lumotlarni mustahkam o‘zlashtirishlarini ta’minlash.

Asosiy g‘oyalar: Deyarli har bir sinf adabiyot darslarida, tarix darslarining bir nechta mavzularda Alisher Navoiy va Bobur haqida o‘qib o‘rganish uchun imkon bor. Darsda keltirib o‘tilgan ma’lumotlar ikki siymo haqida keng va o‘smirlar uchun ajdodlaridan faxrlanish tuyg‘usini shakllantiradigan kontentlarni taqdim etadi.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

Aqliy va tushunchaviy darajada:

1. O‘quvchilar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburga aloqador ma’lumotlarni puxta bilib oladi.
2. Ushbu ikki siymoni nafaqat shoir va davlat rahbari sifatida, balki boshqa qirralarini ham yaxshilab o‘zlashtiradi.
3. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqida o‘rganilgan bilimlardan kelib chiqib, o‘quvchilarda mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritish

ko'nikmasi shakllanadi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- Ajdodlarni e'zozlash hissini tarbiyalaydi.
- Ajdodlarni qadrlash va o'z yaqinlarining hurmatini joyiga qo'yish hissi shakllanadi.
- Ma'naviy merosga hurmat bilan munosabatda bo'lish adabiy hamda tarixiy merosimizga nisbatan mas'uliyatli munosabat paydo bo'ladi.

3. Amaliy ko'nikmalarda:

- Olgan bilimlar vositasida kunimizdagi voqelikni tahlil qilishga urinish, sog'lom tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalari shakllanadi.
- O'z olgan bilimlarini kreativ ravishda solishtirish va tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Jamiyatda Navoiy va Bobur haqidagi fikrlarni tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi.
- Hozirgi kunda Navoiy va Bobur hayoti va ijodini o'rganish, keying avlodga meros qoldirishga qaratilgan ishlarni tushunish ko'nikmasi shakllanadi.

Metapredmet: mashg'ulot davomida o'quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, **turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarini** rivojlantiradigan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to'plami:

ssenariy;

uslubiy tavsiyalar;

videomateriallar;

interaktiv topshiriqlar;

taqdimot.

1. KIRISH. Motivatsion qism(10 daqiqa)

O‘qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o‘quvchilar. Bugun 9-fevral. Qanday sana?

O‘quvchilar: Alisher Navoiyning tug‘ilgan kuni.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Bugun Alisher Navoiy bobomiz tavalludiga 585 yil to‘ldi. Shuningdek, bu hafta, ya‘ni 14-fevralda Zahiriddin Muhammad Boburning ham tug‘ilgan kunini nishonlaymiz. Shu sababli bugun biz ushbu ikki buyuk siymo haqida gaplashamiz.

Pauza

O‘qituvchi: Tasavvur qiling, siz podkast eshityapsiz. Lekin bu oddiy podkast emas. Unda tarixda yashagan uch buyuk inson suhbatlashyapti. Tarixda ular uchovi hech qachon bir joyga to‘planib suhbat qilishmagan. Ammo bir tasavvur qilaylik: ular uchrashganida nima haqida gaplashishar edi?

Ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

Tarixiy podkast

<https://youtu.be/JeTfAf9o5nA>

O‘qituvchi: Bugun biz bejiz Navoiy va Bobur bobolarimizni birga eslamayapmiz. Bu ikki zot hayoti va faoliyati davlat, jamiyat va shaxs taqdiri haqida o‘ylashga majbur qiladi.

Navoiy xalq dardini faqat ijodidagina emas, amalda ham, ya‘ni davlat ishlarida, qarorlar orqali, adolatni talab qilish orqali ko‘rsatgan. Bobur esa saltanat boshqarish qanchalik og‘ir ekanini yashirmay, tarix oldida rostgo‘y bo‘lish yo‘lini tanlagan.

Sizlar bitiruvchi sinf o‘quvchilarisiz. Oldinda tanlovlar turibdi: qaysi kasbni tanlayman, kim bo‘laman, jamiyatda qanday o‘rin egallayman degan savollar haqida o‘ylayapsiz. Hayotingizdagi balki ilk muhim qaroringizni qabul qilishingiz kerak.

Bugungi darsda biz Navoiy va Boburni “o‘qib chiqish” uchun emas, ular qanday fikrlagan, qanday qaror qilgan va tarix oldida qanday javob berganini tushunish uchun o‘rganamiz.

Chunki tarix – faqat o‘tmish emas. Tarix – bu kelajakka berilgan savol.

Endi shu savolga birga javob izlaymiz: Nega Navoiy va Bobur merosi hali ham davlat, jamiyat va yoshlar uchun muhim? Nima uchun bu ikki mutafakkir shaxsi aynan sizlar uchun va aynan hozir muhim?

2. ASOSIY QISM (25 daqiqa)

Alisher Navoiy: davlat, xalq va tarix oldidagi mas'uliyat

O'qituvchi: Tarixda shoirlar ko'p bo'lgan. Lekin xalq taqdiri uchun davlat xizmatida ishlab turib, ya'ni ichkaridan yengillashtirgan, hokimiyatni adolatli va xalqparvar bo'lishga doim undagan shaxslar kam. Alisher Navoiy ana shunday siymolardan biri edi.

Navoiy o'z davrida vazir, yirik davlat arbobi va ulkan ta'sirga ega shaxs edi. Unga podshoh quloq solardi, xalq uni yaxshi ko'rardi, shahzodalar va a'yonlar uning maslahatiga yurardi. Bu mavqega u o'z bilimi, keng tafakkuri va donishmandligi bilan erishgan.

U vazir, hatto Bosh vazir bo'ldi, viloyatlarni boshqardi, hokimlik mas'uliyatini zimmasiga oldi. Lekin bu lavozimlar unga boylik yoki shaxsiy manfaat uchun kerak bo'lmagan. Uning uchun mansab xalqqa xizmat qilish imkoni edi.

U ochiq-oydin bir tamoyilga amal qilgan: **davlat kuchi xalq roziligidan boshlanadi.**

Shuning uchun Navoiy xalq uchun xayriya muassasalari ochdi, yetim-yesir, kambag'allarni qo'llab-quvvatladi, madrasa, masjid, shifoxona va yo'lovchilar uchun maskanlar barpo ettirdi, xalqning dardini podshohga yetkazdi, adolatli boshqaruv bo'lishi uchun nizom yozdi.

Podshoh Husayn Boyqaro bilan yaqin bo'la turib, unga faqat yoqimli gaplarni emas, to'g'ri va xalqparvar maslahatlarni ayta olgan. Og'ir soliq yuki, adolatsiz qarorlar yoki xalqqa zulm keltiradigan siyosatga qarshi turgan.

Navoiy yana bir muhim vazifani bajargan: u temuriyzoda shahzodalar o'rtasidagi nizolarda diplomatik ko'prik bo'lgan. Qilich bilan emas, so'z va aql bilan ish qilish kerakligini uqtirgan. Bu bilan u janglarda nobud bo'lishi mumkin bo'lgan ancha jonlarni saqlab qolgan. U yaxshi bilgan: ichki urushlar davlatni ichidan yemiradi, saltanatni zaif qiladi va dushmanga tobe qiladi.

Shu sababli Navoiy o'z davridayoq faqat Xurosonda emas, mamlakat tashqarisida ham keng tanilgan. Uning nomi faqat shoir yoki olim sifatidagina emas, donishmand siyosiy arbob sifatida ham taniqli edi.

Bugun Navoiyni butun dunyo biladi. Navoiy shaxsining miqyosi bitta hudud bilan emas, dunyo bilan o'lchanadi. Ammo o'zbek xalqi uchun u bundan ham ortiq: Navoiy bizni birlashtiruvchi, hamma o'zbekistonliklar uchun bahssiz va shubhasiz buyuk siymo.

O'qituvchi: Bugungi kunda Tokio, Seul, Shanxay, Dushanbe, Anqara, Lakitelek (Vengriya), Ostona, O'sh, Boku, Moskva, Minsk, Toshkent, Shirin, Samarqand, Navoiy, Guliston kabi o'nlab shaharlarida Navoiyga haykal o'rnatilgan. Bu ham buyuk bobokalonimizni dunyo tanishi va e'zozlashining isbotidir.

Bugun O‘zbekistonda universitet, ilmiy va madaniy muassasalar, ko‘chalar, maydonlar, teatrlar, kutubxonalar, butun bir viloyat va shaharlar Navoiy nomi bilan ataladi.

Bu shunchaki hurmat emas. Bu katta bir xalqning xotirasidan abadiy joy olish degani.

Hozir Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetiga qilingan videosayohatni birgalikda tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Alisher Navoiy nomidagi universitetdamiz

<https://youtu.be/2EDjba3OLD4>

O‘qituvchi: Qiziq bir jihati bor. Navoiy o‘zidan 42 yosh kichik bo‘lgan bir temuriyzodani yaxshi bilgan. Bevosita bo‘lmasa ham, g‘oyibona uning iste’dodiga tan bergan. Uni ko‘rmagan, u bilan uchrashmagan. Chunki biri Xurosonda, biri Andijon va Samarqandda edi.

Ammo Navoiy uning iste’dodini eshitgan, uni kuzatgan va unga xat yozgan. Bu xat Navoiyning Boburga yozgan yagona maktubi bo‘lib, u buyuk siymoning e’tirofi edi.

Navoiy nima uchun Boburga maktub yozgan?

O‘sha paytlar Hirotida Navoiy davlat ishlaridan iste’foga chiqib “Majolis un nafois” degan tazkirasini yozayotgan edi. Tazkira – bu o‘zigacha bo‘lgan va o‘zi bilan zamondosh bo‘lgan shoirlar hayoti va ijodi haqidagi kitob. Navoiy ushbu kitobiga kiritish uchun turli shoirlarning ijodini o‘rgana turib, Samarqandda yosh hukmdor va shoir Boburning g‘azallarini o‘qib qoladi. Muallifning iste’dodiga tan berib, unga omad va quvvat tilab maktub yozadi.

Bobur ham bu maktubga javob yozib, ma’naviy ustozining e’tirofidan xursand bo‘lganini aytadi va turkiy tilda yozilgan yangi g‘azalini ham ilova qiladi.

Shu bilan bu ikki zamondosh daho maktub orqali o‘zaro diydorlashishadi. Boburning maktubiga Navoiyning javobi kelmaydi. Chunki Movarounnahr notinch bo‘lib qoladi, Bobur Samarqandni Shayboniylarga boy beradi, Hirotida esa Navoiy vafot etadi.

Shu yerda savol tug‘iladi: agar Navoiy vazir bo‘la turib davlat va xalq mas’uliyatini shunchalik ko‘tarib yashagan bo‘lsa, Bobur bu mas’uliyatni bevosita zimmasiga olgan hukmdor sifatida qanday yashagan va yana xolis tarzda buni yozib qoldirgan?

Zahiriddin Muhammad Bobur: orzudan imperiyaga, mas’uliyatdan tarixgacha

O‘qituvchi: Bobur juda yoshligidan taxt, jang, siyosat va qarorlar ichida ulg‘aygan. Uning hayoti oson kechmadi: 12 yoshida otadan yetim qoldi va taxtga o‘tirdi, hali 30 ga to‘lmay yurtidan ayrilgan, tajribali Shayboniyxonga mag‘lub bo‘lgan, yana tiklangan va Hindistonda katta imperiya qurgan.

U faqat jang qilgan sarkarda emas edi. U davlat qurishni bilgan hukmdor edi. Bobur barpo etgan saltanat – bu shunchaki hudud emas. Bu – tartib, boshqaruv, siyosat va strategiya natijasida qurilgan markazlashgan davlat edi. Bu davlat Boburdan so‘ng yana 300 yil yashadi.

Shu sababli tarix Boburni jasur jangchi, dono sarkarda, uzoqni ko‘ra oladigan siyosatchi sifatida taniydi.

Interaktiv 1: “Bobur qaysi sifatlari bilan g‘alaba qozondi?”

Sinf to‘rtta kichik guruhga bo‘linadi. Har guruhga alohida savol:

1-guruh: Boburdagi **jasorat** nimada ko‘rinadi?

2-guruh: Boburdagi **sabr va bardoshlilik** nimada ko‘rinadi?

3-guruh: Boburdagi **aql va strategiya** nimada ko‘rinadi?

4-guruh: Boburdagi **yetakchilik (liderlik)** nimada ko‘rinadi?

Vazifa: Har guruh berilgan savolga javoban 3 tadan fikr yozadi va aytadi.

O‘qituvchi: Demak, imperiya tasodifan qurilmaydi. Imperiya – bu ichki intizom va qat‘iyat natijasi. Agar Boburning Hindistonda qurgan davlatini bir loyiha deb olsak, bu loyihaning muvaffaqiyatini aynan Boburning sizlar sanagan salohiyat va fazilatlarini natijasi deyish mumkin. Demak, sizlar ham kelajakda biror loyihani boshlar ekansiz, ushbu interaktiv o‘yinimiz xulosalarini esdan chiqarmang.

O‘qituvchi: Bobur haqida gap ketganda, bitta muhim jihatni alohida aytish kerak. Bobur tarix oldida rostgo‘y bo‘ldi. U tarixiy haqiqatlardan qochmadi. Buni u yozgan “Boburnoma” tasdiqlab turibdi.

“Boburnoma” shu kungacha butun dunyo qirollari va sultonlari tarixida kuzatilmagan saltanatnomadir. Hech bir monarx yoki sulton Bobur kabi to‘liq, samimiy, batafsil va ma‘rifiy ahamiyatga ega biografiyasi bilan maqtana olmaydi. Shu sababli ham butun dunyo Boburni hukmdor sifatidagi xatolari-yu g‘alabalari yoki she‘rlaridan ham oldin aynan “Boburnoma”si orqali taniydi va qadrlaydi.

Interaktiv 2: “Rostlik nima uchun kerak?”

Savol (butun sinfga): Inson xatolarini tan olsa, kuchli bo‘ladimi yoki kuchsiz? 2-3 nafar o‘quvchi fikr bildiradi.

O‘qituvchi: Bobur imperiya qurdi. Lekin u imperiyani faqat qurol bilan emas, iroda, aql va maqsad bilan qurgan.

Siz bugun imperiya qurmasligingiz mumkin. Lekin o‘z kelajagingizni qurasiz, bunda siz xatolardan qo‘rqmasdan oldinga yurishingiz kerak.

Shu o‘rinda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonovning Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur haqidagi fikrlariga quloq tutamiz.

Vizual kontent

Xayriddin Sultonovning Navoiy va Bobur haqidagi mulohazalari

<https://youtu.be/29DhU6CVER8>

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar. Sizlarga bir muhim manbani tavsiya etaman. Navoiy bobomiz haqida yaxshi ilmiy platforma ishga tushirilibdi: NAVOIYSHUNOSLIK.UZ

Brauzeringizga shu manzilni tersangiz, chiqadi.

Ushbu platforma Alisher Navoiy asarlarida mujassam bo‘lgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunidagi o‘rnini belgilash, shoirning boy adabiy-ilmiy merosini xalqaro miqyosda chuqur tadqiq etish va keng targ‘ib qilish maqsadida ishga tushirildi.

Platformada Navoiy ijodini o‘rganayotgan xorijiy adabiyotshunos olimlar faoliyati, turli mamlakatlardagi ilmiy-ijodiy markazlar bilan hamkorlik natijalari, shoir asarlarining tadqiqotlari, tarjimalari, badiiy va ilmiy ishlari jamlanadi va ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Ma‘lumki, Alisher Navoiy ijodi bugun jahon miqyosida katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Berlin, AQSh, Fransiya, Vengriya va boshqa davlatlarda o‘tkazilgan xalqaro anjumanlarda Navoiy dahosi Homer, Dante, Shekspir kabi buyuk mutafakkirlar qatorida e‘tirof etilgan.

“navoiyshunoslik.uz” — Navoiy merosiga oid matn, tasvir, audio, video va animatsion materiallarni o‘zida jamlagan, yaxlit va zamonaviy ilmiy platformadir.

Manzili bu:

<https://navoiyshunoslik.uz/>

Kirib albatta foydalaninglar.

3. YAKUNIY QISM (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Hozir sizlar videoni tomosha qilasizlar.

Unda davlatimiz tomonidan Navoiy va Bobur shaxsiga, ularning merosiga ko‘rsatilayotgan **yuksak e‘tibor** aks etadi.

Videoni ko‘rar ekansiz, bitta savolga javob topishga harakat qiling:

Nega davlat buyuk ajdodlarni qadrlaydi? Bu faqat o‘tmish uchunmi yoki bugun va kelajak uchun ham muhimmi?

Vizual kontent

Navoiy va Bobur xotirasiga e‘tibor

O'qituvchi: Davlat buyuk bobolarimiz nomini abadiylashtirish uchun zarur ishlarni qilyapti. Muhtaram Prezidentimiz buyuk ajdodlarimiz merosiga e'tiborli bo'lishni nafaqat so'zda, balki amalda ham ko'rsatib kelmoqdalar.

Endi savol: **bu meros kim uchun saqlanmoqda?**

Javob oddiy: sizlar uchun, kelajak avlod uchun, bugungi tanlovlar oldida turgan yoshlar uchun.

Demak, buyuklarimiz merosini yaxshilab o'rganinglar, Navoiyni o'qinglar, "Boburnoma"ni o'qinglar va xulosa qilinglar. Bu xulosalar sizlarga hayotda albatta kerak bo'ladi.

Shu bilan darsimiz yakunlandi. Xayr. Keyingi darsda ko'rishguncha. E'tiboringiz uchun rahmat.